

Qabul qilindi: 06.07.2024 Chop etildi: 30.08.2024

UDK: 81-26347.78.034

**DAN BRAUNNING “FARISHTALAR VA IBLISLAR”
ASARIDA UCHRAYDIGAN BA’ZI
LINGVOKULTUREMALARNING INGLIZ TILIDAN
O‘ZBEK TILIGA TARJIMASI XUSUSIDA**

Anvarova Farangiz Anvarovna

Termiz davlat uiversiteti tadqiqotchisi

**ABOUT THE TRANSLATION OF SOME
LINGUOCULTUREMES FROM ENGLISH INTO
UZBEK USED IN THE NOVEL "ANGELS AND
DEMONS" BY DAN BROWN**

Anvarova Farangiz Anvarovna

researcher, Termez State University

**О ПЕРЕВОДЕ НЕКОТОРЫХ
ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМ С АНГЛИЙСКОГО НА
УЗБЕКСКИЙ ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В РОМАНЕ
«АНГЕЛЫ И ДЕМОНЫ» ДЭНА БРАУНА**

Анварова Фарангиз Анваровна

научный сотрудник Термезского государственного
университета



E-mail:

[anvarovafarangiz9624@
gmail.com](mailto:anvarovafarangiz9624@gmail.com)

ORCID 0009-0006-8197-
3681

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur amerikalik yozuvchi Dan Brownning “Farishtalar va iblislar” asarida keltirilgan bir qancha lingvokulturemalarning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi masalalari tadqiq qilingan. Ishda lingvokulturemalarni o‘g‘irish jarayonida tarjima qiyinchiliklari hamda ularni tarjimada berishda adekvatlikka erishish usullari atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturema, lingvomadaniy birliklar, o‘xshatishlar, frazeologizm, paremiologiya, tarjima usullari, transliteratsiya, so‘zma-so‘z tarjima.

Abstract: This article examines the issues of translating a number of linguacultures from English into Uzbek used in the work “Angels and Demons” by the famous American writer Dan Brown. The work examines in detail the translation difficulties in the process of translating linguacultures and ways of achieve to adequacy in their translation.

Keywords: linguacultureme, linguacultural units, comparisons, phraseological units, paremiology, translation methods, transliteration, word-for word translation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы перевода ряда лингвокультур с английского на узбекский язык, употребленных в произведении «Ангелы и Демоны» известного американского писателя Дэна Брауна. В работе подробно рассмотрены переводческие трудности в процессе перевода лингвокультур и способы достижения их адекватности в переводе.

Ключевые слова: лингвокультурема, лингвокультурные единицы, сравнения, фразеологизмы, паремиология, способы перевода, транслитерация, дословный перевод.

Kirish. XXI asrga kelib zamonaviy tilshunoslikning turli jabhalarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Til hodisalarini turli aspektda o‘rganish orqali tilshunoslik fanining yangi tarmoqlari rivojlanmoqda. Bugungi kunda turli xalqlarning

tillari va madaniyatini tadqiq qilish, ularni qiyosiy tahlil qilish, til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligini o‘rganish zamonaviy tilshunoslik fanining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Lingvokulturologiya fani ayni masalalar bilan shug‘ullanadi.

Lingvokulturologiya tilshunoslik fanining yangi tarmog'ini sifatida o'tgan asrning 90-yillarida yuzaga keldi. Tilshunos olimlarning ta'kidlashlaricha "lingvokulturologiya" (Lot. Lingua – "til", cultus – "hurmat qilish, ta'zim qilish") atamasi dastlab V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva tilshunoslik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda olg'a surilgan [6, B.286].

Lingvokulturologiya sotsiolingvistika va etnolingvistika fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Lingvokulturologiya fani tilni madaniyat belgisi sifatida o'rganuvchi soha hisoblanib, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganish uning predmetini tashkil qiladi. Lingvokulturologiyaning birligi lingvokulturremalar deb yuritiladi.

Lingvokulturrema atamasi fanga tilshunos olim V.V.Vorobyov tomonidan kiritilgan bo'lib, ma'nosida milliy madaniy komponent mavjud leksemalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur atama dastlab til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini oydinlashtirishga yordam beradigan asosiy birlik sifatida ishlatilgan. Olimning fikricha, "til va madaniyatning o'zaro munosabati va ta'sirini murakkab muammo sifatida o'rganayotganda, har ikkala bir-birlari bilan bog'liq hodisani sintez qiladigan maxsus birlikni aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi" [4, B. 45].

Turli tilshunoslar lingvokulturremalarga ta'rif berish barobarida ularning tarkibiga quyidagilarni kiritadilar: muqobilsiz leksika, lakunalar, mifologiyalashtirilgan til birliklari, tilning paremiologik va frazeologik fondi, tildagi o'xshatishlar, ramzlar, steriotiplar, metaforalar va obrazlar, tildagi stilistik vositalari, nutq birliklari va hokazo.

Yuqorida keltirib o'tilgan lingvokulturremalarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, muqobilsiz leksikaga kelsak, har qanday tilda boshqa tilga bir so'z bilan tarjima qilib bo'lmaydigan leksik birliklar nazarda tutiladi. Muqobilsiz leksika muayyan xalq madaniyatiga xos hodisalarni aks ettiradi. Har bir davlatning onomastik birliklari, pul va o'lchov birliklari, bayram va marosim nomlari va shunga o'xshash leksemalari o'sha millat madaniyatining bir belgisi sanaladi.

Genetik jihatdan noqardosh bo'lgan ingliz va o'zbek tillarining lingvokulturologik birliklari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shu bois zamonaviy ingliz badiiy asarlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalarini chog'ishtirish orqali lingvokulturremalarining tarjimada berilishi bilan bog'liq muammolarni o'rganishga jazm qildik.

Metodlar: tadqiqot davomida chog'istirma, tavsifiy metodlar, izohlash, sharhlash kabi usullarga tayanamiz.

Natijalar: Mazkur maqolada mashhur yozuvchi Dan Braunning "Angels and Demons" asarida uchraydigan ayrim lingvomadaniy birliklar tarjimasida so'z yuritiladi. Amerikalik yozuvchi qalamiga mansub bestseller asarlardan biri bo'lgan ushbu asar ilk bora o'zbek tilida 2023-yil 8-aprel kuni "Farishtalar va iblislar" nomi bilan nashr etilgan. "Farishtalar va iblislar" roman triller bo'lib, unda Den Braunning keyingi asarlarining qahramoni sifatida takrorlanadigan Robert Lengdon xarakteri taqdim etiladi. Ushbu roman ko'plab stilistik adabiy elementlarni o'zida jamlagan bo'lib, unda, asosan, maxfiy jamiyatning fitnalari, bir kunlik vaqt oralig'i, katolik cherkovi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Asarda bir qancha lingvokulturremalarga duch kelish mumkin. Ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

"Ancient documents described the symbol as an *ambigram* – *ambi* meaning "both", signifying it was legible both ways". Ushbu misoldagi "*ambigram*" so'zi *muqobilsiz leksika* sanaladi. Aslida *ambigram* so'zining o'zbek tiliga ekvivalenti yo'q. So'zning izohiga kelsak, u ikki xil yo'l bilan o'qiladigan bitta yoki ikkita so'z yoki frazaning tasviri degani. Asarning o'zbek tiliga tarjimasida bu so'zni "*ambigramma*" tarzida ko'rish mumkin. Bu o'rinda biz tarjimaning transliteratsiya usulidan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. "Transliteratsiya" – bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi. Alifboga asoslanar ekan, transliteratsiya harflarni shartli qo'llashga qo'shimcha hamda diakritik belgilar kiritishga yo'l qo'yadi.

"Only what I had time to read on your website. The word *illuminati* means "the enlightened ones". It is the name of sort of ancient brotherhood".

Mazkur misoldagi navbatdagi *muqobilsiz leksika* bu – "*illuminati*" so'zidir. Bu so'zning ham o'zbek tilidagi muqobil varianti yo'qligi sababli

soʻzning oʻzi koʻchirilgan. “*Illuminati*” soʻzi “*Maʼrifatga erishganlar*” maʼnosini bildiradi. Bu qandaydir qadimiy tashkilotning nomi va ularning aʼzolari, asosan, ziyolilar boʻlishgan. Dunyoviy bilimga ega boʻlgan ushbu tashkilot aʼzolari hamisha katolik cherkovi taʼqibi ostida boʻlgan. Bu oʻrinda esa biz tarjimaning transfer tarjima usulidan foydalanilganini koʻramiz. “Transfer” tarjima maʼlum bir tildagi soʻzni ikkinchi tilga hech narsani oʻzgartirmasdan yoki hech qanday belgi qoʻshmasdan oʻtkazishdir. Tarjima jarayonida transfer metodidan foydalanish tarjima qilinayotgan tilga neologizmlar kirib kelishiga sabab boʻladi va keyinchalik ular oʻsha tilning soʻz boyligi oshishiga ham xizmat qiladi.

“He avoided enclosed sports like *racquetball* and *squash*, and he had gladly paid a small fortune for his airy, high-ceilinged Victorian home even though economical faculty housing was readily available” [2]. Asar tarjimasida diqqatimizni tortgan navbatdagi lingvokulturemalar qatoriga “*racquetball* and *squash*” soʻzlarini kiritish mumkin. Sport turlari nomlarini anglatuvchi inglizlarning milliy sport turlarining nomini anglatuvchi bu ikki soʻz boshqa xalqlar uchun lakuna sanaladi. Oʻzbek tiliga tarjima qilinganda esa “*raketbol* va *skvosh*” transkripsiya usulidan foydalanilgan holda berilgan.

“Transkripsiya” – asliyat tilidagi soʻzni tarjima tili tovushlari vositasida aniq aks ettirishga asoslangan tarjima usuli boʻlib, fonetik printsipga asoslangan tovush vositasida tarjima qilish demakdir [1].

“The director must be in a hurry to see you. He doesn’t usually send the big boy”. Bu oʻrinda esa biz idiomani koʻrishimiz mumkin. Keling jumlaning oʻzbekcha tarjimasini bilan solishtiraylik. “Direktorimiz, rostdan ham, sizni zudlik bilan koʻrishlari kerak chogʻi. U odatda bu samolyotni oddiy mehmonlar uchun joʻnatmaydi”.

“The big boy” deganda aynan samolyot nazarda tutilmoqdaki, yaʼni bu samolyot direktorning qoʻl ostidagi samolyotlarning eng yaxshisi ekanligi aytilgan. Mazkur lingvokulturema idiomatik xarakterga ega boʻlib tarjimon uchun maʼlum qiyinchiliklar tugʻdiradi. “Idioma” – frazeologizmning bir turi boʻlib, muayyan bir tilga xos, boshqa tillarga aynan tarjima qilib boʻlmaydigan nutq birligi yoki ibora. Tarjima

jarayoniga kelsak, bu oʻrinda modullashtirish usulidan foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin.

“Modullashtirish” – tarjima jarayonida asliyatda ifodalangan matnga muqobillikni taʼminlash maqsadida tarjimon nuqtayi nazaridan turib oʻzgartirishlar kiritish. Bunda asliyatdagi xususiy holda kelgan birlik umumlashtirilishi, abstrakt narsa konkretlashtirilishi mumkin [1]. Shuningdek, tarjimada passiv konstruksiyalarning aktivlashtirilishini ham kuzatish mumkin. Bu usul terminologiyaga nisbatan qoʻllanilmaydi.

“*The big boy*” idomasining sinonimi sifatida “*An apple in the eye*” ekvivalentini ham ishlatish boʻladi. Fikrimizcha tarjimon aynan shu idiomaning oʻzbekcha sinonimini ham topib, qoʻllaganda maʼno taʼsirchanligi yanada oshiriladi.

“His shelves were packed with religious artifacts from around the world an *ekuaba* from Ghana, a *gold cross* from Spain, a *cycladic idol* from the Aegean, and even a rare *woven boccus* from Borneo, a young warrior’s symbol of perpetual youth”. Mana bu jumlada bir qancha *realiyalar* keltirilgan boʻlib, ular faqatgina xristian diniga xos va boshqa millatlar uchun tamomila begona hisoblanadi. Jumlaning oʻzbek tilidagi tarjimasini quyidagicha:

“Uning javonlarini dunyoning turli burchaklaridan keltirilgan osori-atiqalar – Ganadan keltirilgan *qandaydir taxta qoʻgʻirchoq*, Ispaniyadan topilgan *oltin xoch*, Egey dengizidan olib kelingan *yunon afsonaviy maʼbudlarining buti*, hatto yosh jangchining tunganmas kuchini ifodalovchi, Borneoda *toʻqilgan noyob ramz* toʻldirib turardi” [7, B. 9].

Ramz inson ruhiyatining tili boʻlib, u tabiat bilan ana shu tilda gaplasha boshlagan. Ramz tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksidir. Y.M.Lotman ramzlarni “madaniy majmuaning eng barqaror elementlaridan biri” sifatida qayd qilgan [5, B.241]. Ijtimoiy muloqot tizimida hayvonlar, qushlar, ranglar, raqamlar, matn, tasvir, harakat kabilar ramz boʻlib xizmat qiladi.

Tarjima jarayoniga kelsak, bu yerda soʻzma-soʻz tarjima usuli qoʻllangan, “Soʻzma-soʻz” tarjima – bu soʻzlarning jumlada qanday qoʻllanilishiga qaramasdan, har bir soʻzni alohida tarjima qilish orqali amalga oshiriladigan matn tarjimasidir [3].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, romandagi lingvokulturemalarni o'g'irish uchun tarjimon bir qancha tarjima usullaridan samarali foydalangan.

Munozara: Mashhur amerikalik yozuvchi Dan Braunning qator asarlari dunyo tillariga tarjima qilingan. Yozuvchining "Angels and Demons" asari o'zbek tiliga tarjimon A.G'afforiva tomonidan "Farishtalar va iblislar" nomi bilan tarjima qilindi va kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Asarning asliyat va o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tadqiqi orqali turli madaniyatlarga xos lingvokulturemalarning tarjimada berilish xususiyatlari badiiy va lingvistik tarjima sohalarining rivojiga hissa qo'shadi. Mazkur asar ingliz tiliga xos lingvomadaniy birliklarga boy bo'lib, lingvistik tarjima uchun tadqiqot manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Babayeva S.R. Tarjimada qo'llaniladigan an'anaviy hamda innovatsion usullar. //

«Новости образования: исследование в XXI веке», 2023.

2. Dan Brown. "Angels and Demons". – USA: "Pocket books", 2000. – 558 p.
3. Solijonov J., Yuldoshev N. Badiiy tarjima uchun tarjima usullari tahlili // Ta'lim fidoiyilari. 1-son, 04. 2022.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурологическая парадигма личности: Монография. – М.: Изд-во УМУ РУДН, 1996. – 170 с.
5. Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб: «Искусство-СПБ», 2000. – 704 с.
6. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996.
7. Дэн Браун "Фаришталар ва Иблислар". – Тошкент, ИЛМ-ЗИЁ ЗАКОВАТ, 2023. – 640 б.
8. <https://fayllar.org/mavzu-tarjima-turlari.html>.

